<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dिल्фуза Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamsiddin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dिल्фуза Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumamodova Diyoraqxon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	



TARBIYA DARSLARI ORQALI BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINI MAKTABGA SAMARALI MOSLASHTIRISH YO'LLARI

Tursunonova Nozima Ilxomovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi



ORCID: 0009-0001-1808-0163

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1-sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish jarayonida Tarbiya darslarining integrativ roli yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab makonining vizual idrok etilishi, ya'ni sinf xonasi va kutubxona tasvirlari orqali, bolaning maktabni real ijtimoiy muhit sifatida qabul qilishini tezlashtiradi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish, tartib-intizom va o'qituvchini hurmat qilish kabi mazmuniy komponentlar orqali esa moslashuvning ichki psixologik va normativ mexanizmlari shakllanadi. Shu bois Tarbiya darslari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning maktabga moslashuv jarayonini ta'minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim; tarbiya; maktabga moslashuv; vizual idrok; ijtimoiy-emotsional rivojlanish; maktab muhiti.

Abstract: This article examines the integrative role of Moral Education lessons in facilitating first-grade pupils' adaptation to the school environment. The findings indicate that visual perception of the school space, including images of the classroom and library, accelerates children's acceptance of school as a real social environment and supports the formation of school identity. Components such as hygiene practices, discipline, and respect for the teacher contribute to the development of internal normative and psychological self-regulation mechanisms. Therefore, Moral Education lessons serve as a key driving force in ensuring effective school adaptation in primary education.

Key words: primary education; moral education; school adaptation; visual perception; socio-emotional development; school environment.

Аннотация: В статье раскрывается интеграционная роль уроков воспитания в процессе адаптации первоклассников к школьной среде. Результаты исследования показывают, что визуальное восприятие школьного пространства, в частности через изображения классной комнаты и библиотеки, ускоряет формирование школьной идентичности и принятие школы как реальной социальной среды. Такие содержательные компоненты, как соблюдение гигиены, дисциплина и уважение к учителю, способствуют формированию внутренних нормативно-психологических механизмов адаптации. Таким образом, уроки воспитания выступают в начальном образовании ключевым фактором успешной адаптации учащихся к школе.

Ключевые слова: начальное образование; воспитание; школьная адаптация; визуальное восприятие; социально-эмоциональное развитие; школьная среда.

KIRISH

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi tarbiya fani bilan uzviy bog'liqdir. Tarbiya fanini o'qitish o'quvchilarga tarbiyaviy voqelikni anglatishdan iborat. Shu jihatdan, o'quvchilarning tarbiyaviy voqelikni bilish yo'llari tarbiyaviy tadqiqot jarayoniga o'xshab ketadi. O'quvchilar tarbiya fanini o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirib ko'rilgan va tahlil qilingan faktlar hamda ilmiy xulosalarga tayanish bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarbiyaviy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish va umumiy xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarbiya fanini o'rganish jarayoni ilmiy tadqiqotdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarbiya fani va uning ayrim tadqiqot metodlari haqida bilimga ega bo'ladilar.

Tarbiya fani jamiyat tafakkurining taraqqiyot jarayonini o'rganadi. Jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish o'tmish va hozirgi davrni chuqurroq anglashga hamda kelajakni oldindan ko'ra bilishga imkon beradi. Demak, tarbiya fani va tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish obyekti, vazifalari hamda tadqiqot metodlariga ega bo'lgan mustaqil ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining metodik asoslari mahalliy pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. R. A. Mavlonova va B. Normurodova tomonidan yaratilgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasida tarbiya jarayoni o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqlikda talqin qilinadi. Mualliflar tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab muhitiga moslashuvida tarbiya mashg'ulotlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv tarbiya darslarini maktabga moslashuvning muhim pedagogik vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova va K. Matnazarova muallifligidagi darslikda tarbiya fanining mazmuni, maqsad va vazifalari tizimli yoritilib, tarbiyaviy faoliyatning amaliy yo'nalishlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, K. Xoshimov va S. Ochilov tomonidan tuzilgan "O'zbek pedagogikasi antologiyasi"da milliy pedagogik meros namunalarini orqali tarbiya masalalari tarixiy va nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu asarlarda tarbiya jarayoni shaxsni ijtimoiy muhitga moslashtirishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham maktabga moslashuv masalasi tarbiya va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'lanadi. L. S. Vygotskiy tafakkur va nutq rivoji orqali bolaning ijtimoiylashuv jarayonini asoslab beradi, U. Bronfenbrenner esa bolaning rivojlanishini ekologik tizimlar doirasida tahlil qiladi. Mazkur nazariyalar O'zbekiston Respublikasi Ta'lim konsepsiyasi va Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti talablariga uyg'un holda, tarbiya darslarining birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirishdagi psixologik va ijtimoiy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-emotsional rivojlanish doirasi esa tarbiya darslarining moslashuv jarayonidagi zamonaviy yo'nalishlarini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada birinchi sinf o'quvchilarini tarbiya darslari orqali maktab muhitiga samarali moslashtirish jarayonini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish usullari orqali olindi. Pedagogik kuzatuv jarayonida 1-sinf o'quvchilarining tarbiya darslaridagi xulq-atvori, muloqot faolligi, darsga moslashuv darajasi va ijtimoiy-emotsional holati tizimli ravishda qayd etildi. Suhbat usuli orqali o'qituvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga moslashuv jarayoniga doir fikr-mulohazalari, tarbiya darslarining amaliy ta'siri haqida ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, tarbiya faniga oid darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni hujjatlarni tahlil qilish usuli asosida o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar sifat tahlili orqali qayta ishlanib, kuzatuv natijalari taqqoslash va umumlashtirish asosida tizimlashtirildi. Suhbatlar davomida olingan ma'lumotlar tematik guruhlariga ajratilib, asosiy tendensiyalar aniqlashtirildi. Hujjatlar tahlili natijalari esa tarbiya darslari mazmunining maktabga moslashuv jarayonidagi o'rni va imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda qo'llanilgan mazkur metodologik yondashuv tarbiya darslarining birinchi sinf o'quvchilarini maktab muhitiga moslashtirishdagi pedagogik samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya darslari 1-sinf o'quvchilarini maktab muhiti bilan tanishtirish va ularni yangi ijtimoiy tizimga bosqichma-bosqich kiritishda markaziy pedagogik va psixologik vosita sifatida amal qiladi. Bola maktabga kelganda endi yangi rollar, yangi qoidalar va yangi makon muhitiga kirib keladi. Shu jarayonda tarbiya darslari maktab tushunchasini bola ongida real fazoviy va ijtimoiy struktura sifatida shakllantiradi.

Moslashuvning bosh mexanizmi aynan makon – muloqot – norma uchlik tizimi asosida shakllanadi. Bola uchun sinf xonasining vizual tasdiqlangan real makon sifatida qabul qilinishi juda muhimdir. Maktabga ilk bor kirganida aynan shu makonni ongida belgilaydi va ushbu hududni "mening o'qishim bo'ladigan joy" sifatida qabul qiladi. Tarbiya darsligida sinf tasvirining berilishi mazkur jarayonni istiqbolaydi, ya'ni bilimning qayerda sodir bo'lishi vizuallashtiriladi. Bu esa psixologik xavfsizlik, tayanch va ishonch hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu tushuncha bola ongida maktab identifikatsiyasining boshlang'ich bosqichini yuzaga keltiradi. Inson vizual asosli idrok orqali muhitni tezroq qabul qiladi. Sinf xonasi tasvirining berilishi bola ongida maktabni umumiy abstrakt tushunchadan real jismoniy makonga aylantiradi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining joriy etilishi davlat ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur fan mazmunini takomillashtirish va uni o'qitish metodikasini zamon talablari asosida tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy maqsadi o'quvchilarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, halollik va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu fan orqali bolalar jamiyatda



o'zini tutish qoidalari, axloqiy me'yorlar hamda o'zaro munosabat madaniyatini egallaydilar. Tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlash hamda mas'uliyat hissini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya fanining mazmuni sodda, tushunarli va hayotiy misollar asosida tashkil etilishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda tarbiyaviy ta'sir samaradorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, munozara, rolli o'yinlar, klaster, aqliy hujum va muammoli vaziyatlar asosida o'qitish usullari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash va boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash ko'nikmalarini egallaydilar.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tarbiya fanini o'qitish samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalari, videoroliklar va interfaol taqdimotlar yordamida tarbiyaviy mavzularni yoritish o'quvchilarda chuqur taassurot qoldiradi.

Tarbiya darslari o'qituvchini hurmat qilish, uning so'ziga quloq solish, vazifa va topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qituvchi 1-sinf o'quvchisi uchun birinchi markaziy ijtimoiy shaxs hisoblanadi. Shu bois o'qituvchi bilan muloqot modeli ijtimoiy odob, madaniyat, intizom va o'zini boshqarishning dastlabki namunasi sifatida shakllanadi. Ushbu jarayon ichki normativ tizimning shakllanishiga olib keladi.

Kutubxona maktabning intellektual resurs bazasi sifatida bola ongiga singdiriladi. Kutubxona tasviri kitobning ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Bola kutubxona orqali bilim faqat darsdagi material bilangina cheklanmasligini, balki mustaqil intellektual izlanish obyektiga aylanishini anglaydi. Bu jarayon moslashuvning intellektual komponentiga xizmat qiladi. Kutubxona bola uchun bilimga kirish eshigi hisoblanadi. Ushbu tasvir orqali kitoblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, kitobni qadrlash va unga mas'uliyatli munosabat shakllanadi. Shu tariqa tarbiya darslaridagi kutubxona mazmuni maktabga moslashuvning madaniy-intellektual tayanch komponentiga aylanadi.

Maktabni "ikkinchi uy" sifatida qabul qilish esa bola uchun emotsional moslashuvning eng yuqori bosqichidir. Bola maktabda o'zini xavfsiz, tushunilgan va qadrlangan his qilgan sari unda maktabga nisbatan ijobiy bog'lanish hissi shakllanadi. Ushbu bog'lanish darsga bo'lgan ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi va ijtimoiy ishtirokni oshiradi.

Gigiyena qoidalariga amal qilish bolaning jismoniy moslashuviga xizmat qiladi. Bu ko'nikma sog'liqni saqlash va qulay o'quv muhitini ta'minlovchi muhim komponent hisoblanadi. Gigiyena madaniyati maktabda real hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Tartib-intizomga rioya qilish maktabning ijtimoiy me'yorlarini ichki qabul qilishga xizmat qiladi. Tanaffus vaqtida o'zini boshqarish, yo'laklarda tartib saqlash, navbat kutish va umumiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish moslashuvni amaliy xulq-atvor darajasiga olib chiqadi. Shu tariqa tarbiya darslari 1-sinf o'quvchilarida maktabga moslashuv jarayonini integral tarzda shakllantiradi.

Vizual obyektlar orqali maktab makoni ichki qabul qilinadi, o'qituvchini hurmat qilish, gigiyena va intizom kabi mazmuniy bloklar orqali esa ijtimoiy xulqning normativ tizimi ichkilashtiriladi. Natijada moslashuv jarayoni ijtimoiy-emotsional, psixologik va axloqiy jihatdan tabiiy, bosqichma-bosqich hamda barqaror shakllanadi.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti va yangi texnologik inqilob sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan jamiyat a'zolarini tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini joriy etish, o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini rivojlantirish, ta'lim mazmunini takomillashtirishda pedagogik vositalardan foydalanish, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish hamda ta'limning muhim tizimlarini yaratishda xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya metodi (yunoncha metodos – yo'l) tarbiya maqsadiga erishish yo'lidir. Maktab amaliyotiga tatbiq etilgan metodlar tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulq-atvoriga ta'sir etish usullari sifatida namoyan bo'ladi.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratish birgina tarbiyachining kuchi bilan amalga oshirilmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud bo'lib, har bir tarbiyachi o'z imkoniyatlari doirasida ushbu jarayonni hal etadi. Tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'z qarashlarini ifodalash orqali umumiy metodika boyitiladi. Tarbiya metodlarining bunday xususiy takomillashtirilishi tarbiya usullari deb ataladi.

Tarbiya usullari umumiy metodning tarkibiy qismi bo'lib, alohida harakat va aniqlashtirilgan shakl sifatida namoyon bo'ladi. Obrazli aytganda, usullar tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilar bilan qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun ochiladigan yo'ldir. Agar ushbu usullar boshqa tarbiyachilar tomonidan ham qo'llanila boshlasa, ular asta-sekin keng qamrovli metodlarga aylanadi. Tarbiya metod va usullarini bilish hamda ularni to'g'ri qo'llay olish pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarbiya darslari birinchi sinf o'quvchilarini maktab muhitiga samarali moslashtirishda muhim pedagogik va psixologik vosita hisoblanadi. Ushbu fan orqali o'quvchilar maktab makoni, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar. Tarbiya darslarida beriladigan vizual materiallar, hayotiy misollar va amaliy faoliyatlar o'quvchilarning maktabga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirib, ularda psixologik xavfsizlik va ishonch hissini kuchaytiradi. Natijada maktabni "ikkinchi uy" sifatida qabul qilish, o'qituvchi va tengdoshlari bilan sog'lom muloqot o'rnatish hamda intizomli xulq-atvorni namoyon etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, tarbiya darslari orqali gigiyena, tartib-intizom, o'zini boshqarish va mas'uliyat kabi muhim hayotiy ko'nikmalar shakllanib, o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional moslashuvi ta'minlanadi. Bu holat o'quv jarayoniga tez va og'riqsiz moslashish, darslarga qiziqish va o'quv motivatsiyasining oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, tarbiya darslari mazmunini birinchi sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda yanada boyitish; ikkinchidan, dars jarayonida interfaol va o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish; uchinchidan, vizual materiallar va multimedia vositalari orqali maktab muhiti bilan tanishtirishni tizimli yo'lga qo'yish; to'rtinchidan, o'qituvchilarning tarbiya fanini o'qitish bo'yicha metodik tayyorgarligini muntazam oshirib borish. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashuv jarayonini yanada samarali va barqaror tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. A. Mavlonova, B. Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan, 2008-yil, 88-bet.
2. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova, K. Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014-yil, 403-bet.
3. K. Xoshimov, S. Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 2010-yil, 127-bet.
4. R. A. Mavlonova, N. H. Vohidova, N. H. Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010-yil, 13-bet.
5. Usmanova O. V., Risyukova Y. V. Tarbiya. 1-sinf darsligi. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023-yil.
6. Vygotsky L. S. Thought and Language. Cambridge: MIT Press.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. Cambridge: Harvard University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim konsepsiyasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti: Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS hujjatlari. Toshkent.
10. OECD. Social and Emotional Learning Framework. Paris, 2022-yil.



Tabiiy fanlar va uni o'qitish metodikasida "5E" modelidan foydalanishning didaktik mazmuni va zaruriyati

Shoyeva Yulduz Amin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-8685-0304



Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida "5E" modelidan foydalanishning didaktik mazmuni va uning ta'lim amaliyotidagi zaruriyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur model bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, ta'riflar va ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan. Shuningdek, "5E" modelining tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, "5E" modeli, ijodiy topshiriqlar, tajriba ishlari, o'qitish metodlari, didaktik maqsadlar.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the didactic content and the necessity of applying the "5E" instructional model in natural sciences education. The study summarizes theoretical perspectives, definitions, and research findings proposed by both international and local scholars. In addition, the didactic potential of the "5E" model in enhancing students' cognitive engagement, as well as developing their creative and analytical thinking skills in the learning of natural sciences, is highlighted.

Key words: natural sciences, "5E" model, creative tasks, experimental activities, teaching methods, didactic objectives.

Аннотация: В статье проводится научный анализ дидактического содержания и необходимости применения модели "5E" в процессе преподавания естественных наук. Обобщены теоретические подходы, определения и результаты исследований зарубежных и отечественных учёных, посвящённых данной модели. Раскрываются дидактические возможности модели "5E" в активизации познавательной деятельности обучающихся, развитии их творческого и аналитического мышления при изучении естественнонаучных дисциплин.

Ключевые слова: естественные науки, модель "5E", творческие задания, экспериментальные работы, методы обучения, дидактические цели.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida tabiiy fanlarni o'qitish nafaqat bilim berish, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanish olib borishi hamda hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu bois, ta'lim metodikasida o'quvchini markazga qo'ygan, uning bilish faoliyatini faol rag'batlantiradigan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. "5E" modeli ana shunday samarali metodlardan biri bo'lib, u konstruktivistik nazariya asosida ishlab chiqilgan hamda o'quv jarayonini mantiqiy bosqichlar asosida tashkil etishni ko'zda tutadi. Ushbu model tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilimlarni chuqur va mazmunli o'zlashtirishini ta'minlashga, ularda ilmiy tafakkur va tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ko'pgina an'anaviy metodlar tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni tayyor ma'lumotni eslab qolishga yo'naltiradi. Ammo bunday yondashuv ko'pincha bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi. Ilm-fanning taraqqiyoti, texnologik yangiliklar hamda axborot oqimining kengayishi ta'lim jarayonidan yangidan-yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. "5E" modeli o'quvchilarning bilimni faol izlash, tajriba asosida kashf etish va uni real hayotga tatbiq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Modelning bosqichma-bosqich tuzilishi o'quv jarayonini tizimli, izchil va o'zaro bog'liq holda tashkil etishga xizmat qiladi. Shuni inobatga olgan holda, "5E" modelidan foydalanish nafaqat didaktik jihatdan, balki zamonaviy ta'lim talablari nuqtayi nazaridan ham zarur hisoblanadi. Bybee ta'kidlaganidek, "5E" modeli konstruktivistik nazariya asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarni bilimni mustaqil ravishda kashf etish va uni amaliyotga tatbiq qilishga yo'naltiradi.



An'anaviy o'qitish usul va vositalari aksariyat hollarda tayyor ma'lumotni yod olishga qaratilgan bo'lsa, "5E" modeli o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga, tajriba va kuzatuvlarga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi. Orgill va Thomas fikricha, ushbu model o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali bilimlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Natijada, o'quvchilar mavzu va ma'lumotlarni nafaqat tushunadi, balki ularni tahlil qila oladi hamda hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini egallaydi.

"5E" modelining har bir bosqichiga xos didaktik maqsadlar mavjud bo'lib, ushbu maqsadlar ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimni bosqichma-bosqich shakllantirishga, motivatsiyani oshirish va mustahkamlashga xizmat qiladi (2.1-jadvalga qarang).



1-rasm: "5E" modeli bosqichlarining didaktik maqsadlari

Bir qator xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda turli mavzular va metodlar asosida ushbu bosqichlarning imkoniyatlari hamda afzalliklari yoritib berilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jumladan, R. Bybee o'zining konstruktivistik ta'lim falsafasiga asoslangan ilmiy ishlarida shunday bosqichma-bosqich metodikani ishlab chiqdiki, u yaratgan metodika o'quvchilarni bilimni o'zlari kashf etishga yo'naltirilgan edi. Ushbu metodikani takomillashtirish jarayonida u faol o'quv jarayoni, savol-javob, tajriba asosida o'rganish hamda muammoli vaziyat kabi metodlarga tayanib ish olib bordi.

Mary Kay Orgill va Megan Thomas ham ushbu yo'nalishda bir qator ilmiy ishlanmalar olib borib, ularning yondashuvlari "5E" modelini analogiyalar orqali boyitishga asoslangan. "Analogies and the 5E Model" nomli asarda "5E" modelining har bir bosqichida analogiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan bo'lib, analogiyalarni model doirasida qo'llash natijasida o'quvchilar yangi tushunchalarni ilgari egallagan bilimlari bilan bog'lay olishi, bu orqali tushunish jarayoni chuqurlashishi ilmiy asoslab berilgan. Ushbu yo'nalishda samaraga erishishda mualliflar aynan tabiiy fanlarda murakkab tushunchalarni oddiy, hayotiy misollar orqali izohlash usulidan foydalanganlar. Oddiy qilib aytganda, analogiyalar ikki tushuncha yoki g'oyani taqqoslashga asoslanadi: ularning biri tanish, ikkinchisi esa nisbatan kamroq tanish bo'ladi. Tanish tushuncha ko'pincha analog, kamroq tanish yoki o'rganilishi lozim bo'lgan tushuncha esa maqsad (target) tushuncha deb ataladi.

Engage (jalb qilish). "5E" modelining birinchi bosqichining asosiy maqsadi o'quvchilarda o'rganiladigan ma'lumotga nisbatan qiziqish va ichki motivatsiyani uyg'otishdan iborat. Jalb qilish bosqichi o'quvchilarning avvalgi bilimlarini faollashtirish hamda ta'lim jarayonini davom ettirishdan oldin mavjud noto'g'ri tushunchalarni aniqlashga qaratilgan (Trowbridge, Bybee va Powell, 2004). Odatda, ushbu bosqich o'quvchilarning e'tiborini tortadigan, shuningdek, yangi ma'lumotlar bilan ularning tanish bo'lgan olami o'rtasida bog'lanish hosil qilishga xizmat qiladigan faoliyatlar, namoyishlar yoki hikoyalar orqali amalga oshiriladi. Analogiyalar mazkur bosqich maqsadlariga ayniqsa mos keladi. Lemke (1990) ta'kidlaganidek, o'quvchilar analogiyalarda qo'llaniladigan tanish tilga notanish, ko'proq "ilmiy" terminologiyaga nisbatan ko'proq e'tibor qaratadilar.

Explore (tadqiq qilish). Tadqiq qilish bosqichida o'quvchilar o'rganilayotgan material, tushunchalar yoki hodisalar bilan bevosita o'zaro aloqaga kirishadilar. Odatda, o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib turuvchi, oldindan aniq rejalashtirilgan mashg'ulotni taqdim etadi. O'qituvchi jarayonda faol ishtirok etsada, bevosita ko'rsatma beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator) rolini bajaradi. Analogiyalar tadqiq qilish faoliyati uchun markaziy yo'naltiruvchi vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarga muayyan analogiyani himoya qilish vazifasi ham berilishi mumkin, masalan: "atom kitob javoniga o'xshaydi" yoki "atom kitob javoniga o'xshamaydi". Analogiya yuzasidan bahs-munozara olib borish jarayoni o'quvchilarni tushunchalarni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga undaydi. Biroq tadqiqotchilar noto'g'ri yoki cheklangan analogiyalar noto'g'ri tushunchalarni keltirib chiqarishi mumkinligini, analogiyalarni qo'llashda manba va maqsad o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlarni aniq ko'rsatish, analogiyalarning chegaralarini ochiq tushuntirish zarurligini ta'kidlaydilar. Didaktik ahamiyati shundaki, "5E" modeli doirasida, ayniqsa Explain va Elaborate bosqichlarida analogiyalar samarali vosita bo'la oladi.

Tabiiy fanlar doirasida qo'llash uchun samarali hisoblangan ushbu model o'quvchilarda tajriba ishlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, fan doirasida ijodiy qobiliyatlarini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan.

"5E" modeli o'quvchilarning ilgari mavjud bilimlari asosida yangi bilimlarni faol ravishda o'zlashtirishiga tayanadi va ta'lim olish jarayonini yengillashtiradi. Jumladan, laboratoriya tajribalarini olib borish hamda ular bo'yicha so'nggi tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkoniyatlari amaliyotga asoslangan ushbu modelning har bir bosqichida mujassamlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

R. Bybee "5E" modelini aynan fizika, kimyo va biologiya kabi tabiiy fanlarda keng qo'llashni asoslaganligining muayyan sabablari mavjud. Chunki ushbu fanlarda tajriba o'tkazish, muammolarni hal etish hamda olingan natijalarni izohlash va baholash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi va bu fanlarning tabiati "5E" modelining didaktik mohiyatiga to'liq mos keladi. Ya'ni, mazkur model:

- o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etadi;
- tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- bilimlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish imkonini beradi.

"5E" modeli orqali yangi bilimlar yuzasidan o'quvchilarning ongida mustahkam tushunchalar shakllanishi uchun ularning bevosita tajriba orttirishlari zarur. Fan ta'limi faqatgina ma'lumotlarni yod olishga emas, balki fikrlash va izlanishga asoslangan bo'lishi lozim. Shuni inobatga olgan holda, "5E" modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mentor sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchining kasbiy mahorati har bir bosqichga mos metodlarni to'g'ri tanlay olishi va didaktik imkoniyatlarni keng qo'llay olishida ifodalanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.
2. Y. X. Egamberdiyeva – “Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish”. Экономика и социум, № 11(126)–2, 2024.
3. E. M. Muxtorov – “Tabiiy fanlarni o'qitishda uzluksiz ta'lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini ta'minlashning dolzarbligi”. Tabiiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Buxoro shahri, 2023-yil 5-aprel).
4. Sh. N. Murodov – “Tabiiy fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Tabiiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Buxoro shahri, 2023-yil 5-aprel).
5. G'. M. Sayfulloyev – “Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda amaliy ishlarni tashkil etish”. Scientific Progress, Volume 2 | Issue 6 | 2021. ISSN: 2181–1601.
6. G. A. Piaget – To Understand Is to Invent: The Future of Education. Grossman Publishers, New York, 1973. ISBN: 0670720348, 978–0670720347.
7. Vygotskiy – Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
8. Xiaohong Zhang – “An Empirical Approach and Implications for Teachers to Begin Constructivist Teaching”. Open Journal of Social Sciences, 2019, 7, 375–386. ISSN Online: 2327–5960, ISSN Print: 2327–5952.
9. Rodger W. Bybee – The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. BSCS, 5415 Mark Dabbling Boulevard, Colorado Springs, CO 80918, 2006.
10. Orgill, Mary Kay; Thomas, Megan – “Analogies and the 5E Model”. Science Teacher, v. 74, no. 1, pp. 40–45, January 2007.
11. Boddy, N.; Watson, K.; Aubusson, P. – “A Trial of the Five Es: A Referent Model for Constructivist Teaching and Learning”. Research in Science Education, 2003, 33, 27–42. Kluwer Academic Publishers, Netherlands.
12. Orgill, Mary Kay; Bodner, George – What Research Tells Us About Using Analogies to Teach Chemistry. Received 23 December 2003.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.